



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA  
VAZIRLIGI HUZURIDAGI YURIDIK KADRLARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA MALAKASINI  
OSHIRISH INSTITUTI**

**Toshkent-2025**








## INSTITUTNING TASHKIL ETILISHI

- ① O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga asosan Adliya vazirligi tizimidagi qator qayta tayyorlash va malaka oshirish markazlari negizida **O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti** tashkil etilgan.

Yuristlar malakasini  
oshirish markazi

Arxiv ishi va ish yuritish  
bo'yicha malaka oshirish  
ilmiy-metodik markazi



Yuridik kadrlarni xalqaro  
standartlar bo'yicha  
professional o'qitish markazi

Sud ekspertlarining  
malakasini oshirish o'quv  
markazi



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan Institut faoliyati tashkil etilib, asosiy vazifa va funksiyalar belgilab berildi.





# INSTITUTNING STRATEGIK VAZIFALARI

*adliya organlari va muassasalari xodimlari, yuridik xizmat, advokatura, notariat, sud ekspertizasi, arxiv ishi va ish yuritish, ijro intizomi, murojaatlar bilan ishlash, mediatsiya va intellektual mulk sohalari mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;*

*qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayoni hamda ilmiy faoliyatga yuqori malakali mahalliy va xorijiy mutaxassislarni keng jalb qilish, pedagogika sohasida ilg'or tajriba almashish borasida xalqaro hamkorlikni keng yo'lga qo'yish va rivojlantirish*



*dual ta'limni joriy qilish, mustaqil, uzluksiz malaka oshirish, kredit-modul tizimi asosida o'qitish, mutaxassislarini talab va ehtiyojlardan kelib chiqib shartnoma asosida manzilli o'qitish*

*yuridik va noyuridik sohalarda faoliyat yurituvchi davlat xizmatchilari, xususiy sektor hamda fuqarolik jamiyati institutlari vakillarining huquqiy bilimlarini oshirish*



*xalqaro miqyosda O'zbekiston Respublikasi manfaatlarini munosib ifoda eta oladigan yuridik kadrlarni xalqaro standartlar bo'yicha professional o'qitish*

*oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxslarni yuridik mutaxassislik bo'yicha qayta tayyorlash, huquq o'qituvchilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish*



*adliya organlari va muassasalari faoliyatini, huquqiy xizmatlar ko'rsatish, sud ekspertiza, arxiv ishi va ish yuritish sohasini ilmiy-metodik va konsultativ jihatdan ta'minlash*

*dolzarb masalalari bo'yicha fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar loyihalarini, shu jumladan, milliy, xorijiy va xalqaro grantlarni jalb qilish*



# ZAMONAVIY O'QUV BINOSI VA INFRATUZILMA



## Zamonaviy o'quv xonalari

Multimedia uskunalar va interfaol doskalar bilan jihozlangan, 15-30 kishilik guruhlar uchun mo'ljallangan o'quv xonalari



## Sud va arbitraj zallari

Haqiqiy sud majlislari simulyatsiyasi uchun to'liq jihozlangan sud zallari, mediatsiya xonasi va arbitraj xonalari



## Onlayn ta'lim xonalari

Masofaviy ta'lim, vebinarlar va xalqaro onlayn mashg'ulotlar uchun maxsus jihozlangan xonalar, kompyuter xonalari va kutubxona



## Konferensiya va o'quv zallari

100-150 kishilik xalqaro konferensiyalar, seminarlar va katta yig'ilishlar uchun zamonaviy audio-video tizimlar bilan jihozlangan zallar



## O'quv auditoriyalari

Professor-o'qituvchilar xonalari, ma'muriy xonalar, ish guruhlari uchun maxsus xonalar va tinglovchilar dam olish zonalari





# 2025-YILDA O'QITILGAN TINGLOVCHILAR SONI

22279

## Jami o'qitilgan tinglovchilar soni

### Qayta tayyorlash kurslari

- **289 nafar tinglovchi** oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxslarni yuridik mutaxassislik bo'yicha qayta tayyorlash kursida o'qitildi
- **973 nafar tinglovchi** umumiy o'rta, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarida huquqiy fanlardan dars beradigan, oliy noyuridik ma'lumotga ega pedagog kadrlar qayta tayyorlash kursida o'qitildi

18828

## Onlayn ta'lim

Zamonaviy ta'lim platformalarida o'qitildi

### Malaka oshirish kurslari

- **765 nafar** advokatlar o'qitildi
- **337 nafar** notariuslar o'qitildi
- **663 nafar** yuridik xizmat xodimlari o'qitildi
- **9335 nafar** adliya xodimlari o'qitildi
- **60 nafar** sud ekspertlarining huquqiy bilimlari oshirildi
- **372 nafar** arxiv ishi xodimlari o'qitildi
- **91 nafar** ish yuritishga mas'ul xodimlarning malakasi oshirildi

3451

## An'anaviy ta'lim

Auditoriya mashg'ulotlarida ishtirok etdi

### Turli qisqa muddatli kurslar

- **8570 nafar** tinglovchilar talab va taklif asosida dolzarb mavzularda tashkil etilgan kurslarda o'qitildi
- **668 nafar** mediatorlar o'qitildi
- **156 nafar** tinglovchi Yuridik kadrlarni xalqaro standartlar bo'yicha qisqa muddatli professional o'qitish kurslarda o'qitildi







## INSTITUTDA YURIDIK TA'LIM SOHASIDAGI ZAMONAVIY TENDENSIYALAR

 O'quv dasturlarining **50-60 foizi amaliy mashg'ulotlarga** ajratilgan va bosqichma bosqich ushbu ko'rsatkich oshirib boriladi.

 Investitsiya, arbitraj va boshqa xalqaro xususiy huquq elementlari bo'yicha o'qitish zaruratidan kelib chiqib, **Ingliz va Yevropa huquqi** bo'yicha o'qitishga ustuvorlik berilmoqda.

 Institut barcha o'quv dasturlariga **sun'iy intellekt** va raqamli huquqqa oid mazular kiritildi.

 Yuridik mehnat bozori talabidan kelib chiqib, **talab va taklif asosida** o'qitish, **manzilli, qisqa muddatli** o'qitishga e'tibor qaratilmoqda.

 Institut faoliyatini raqamlashtirishga katta e'tibor, **"Raqamli Institut"** platformasi ishga tushirilgan.

 O'quv mashg'ulotlarini olib borish uchun asosan **amaliyotchi-mutaxassis** va **xorijiy** huquqshunoslarni jalb etishga katta ahamiyat berilmoqda.

### Dolzarb mavzularda kurslar

Kiberxavfsizlik va ma'lumotlarni himoya qilish  
Sun'iy intellekt va huquq  
Legal Tech va AI asosida huquqiy xizmatlar



Xalqaro arbitraj va korporativ huquq  
Tadbirkorlik va investitsiya huquqi  
Kripto aktivlar va ularning huquqiy himoyasi





# Institutning pedagog kadrlar salohiyati

Institutda tashkil etiladigan kurslarda **100 dan ortiq yuqori malakali pedagog kadrlar va amaliyotchi mutaxassislar** dars beradi.



## Tajribali professorlar

Uzoq yillik pedagogik tajriba hamda **ilmiy daraja va unvonga** ega professor-o'qituvchilar huquqning fundamental asoslarini o'rgatadi.



## Amaliyotchi mutaxassislar

**Sudya, prokuror, advokat** va huquqshunoslikning boshqa sohalarida faoliyat yuritayotgan amaliyotchilar o'z tajribalari bilan bo'lishadilar.



## Xalqaro ekspertlar

Xorijiy universitetlar va xorijiy tashkilotlardan jalb qilingan **xalqaro mutaxassislar** xalqaro standartlar asosida ta'lim beradilar.



## Yosh tadqiqotchilar

Innovatsion yondashuvlar va zamonaviy tadqiqot metodologiyalarini qo'llagan holda, huquq sohasidagi yangi yo'nalishlarni o'rgatadilar.







## OLIV MA'LUMOTGA EGA BO'LGAN SHAXSLARNI YURIDIK MUTAXASSISLIKKA QAYTA TAYYORLASH KURSLARI

❶ Mazkur kurslar yuridik kadrlarga yildan-yilga oshib borayotgan talabni qondirish hamda yuridik ta'lim olishga keng imkoniyat yaratish maqsadida tashkil etilib, O'zbekiston yuridik mehnat bozoriga intensiv o'qitish dasturlari asosida kadrlar tayyorlashga qaratilgan.



Kurslarga faqat oliy ma'lumotli shaxslar qabul qilinib, yurisprudensiyaning eng muhim fanlari bo'yicha 640 soatlik o'quv dasturlari asosida 6 oy davomida o'qitiladi.



Nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash maqsadida kurslarda ishdan ajralmagan — masofaviy va ishlab chiqarishdan ajralgan — auditoriya mashg'ulotlari shaklida o'qish imkoniyati yaratilgan.



Kursni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarga davlat namunasidagi qayta tayyorlash to'g'risidagi diplom beriladi.

Diplom olgan shaxslar yuridik xizmatlarda, davlat xizmatlari markazlari, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida barcha lavozimlarda, shuningdek, advokatura va notariat tizimida oliy yuridik ma'lumot talab etilmaydigan lavozimlarda ishlash huquqiga ega bo'ladi.





# ILMIY-INNOVATSION FAOLIYAT



## Doktorantura

Institutda tegishli yuridik ixtisosliklar bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim — **doktorantura instituti** faoliyat yuritadi.



## Ilmiy jurnal

Institutda qator xalqaro ma'lumotlar bazalariga integratsiya qilingan "**Yursit axborotnomasi**" ilmiy-huquqiy jurnali faoliyat yuritadi.



## Ilmiy kengash

Institutda dissertatsiya himoyalari bo'yicha **ilmiy kengash** faoliyat yuritadi.



## Ilmiy unvonlar

Institutga **ilmiy daraja va unvonlarga** tavsiya etish huquqi berilgan.







Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan **adliya organlari va muassasalari faoliyatini, huquqiy xizmatlar ko'rsatish, sud ekspertizasi, arxiv ishi va ish yuritish sohalarini** ilmiy-metodik va konsultativ jihatdan ta'minlash vazifasi yuklatilib, institut tomonidan **uslubiy metodikalar** ishlab chiqiladi.



# YURIDIK KADRLARNI XALQARO STANDARTLAR BO'YICHA PROFESSIONAL O'QITISH KURSLARI

WHITE & CASE



MAYER | BROWN

CURTIS

DENTONS

SQUIRE  
PATTON BOGGS

BAKER BOTTS

CMS  
law·tax·future

▶ Tinglovchilarning **investitsiya va tijorat faoliyatida** xalqaro huquq asoslarini o'zlashtirishini, **xalqaro xususiy, tijorat huquqi, xalqaro arbitrajning** moddiy va protsessual huquq normalarini amalda qo'llash, ilg'or advokatik texnikasi, ingliz huquqi, aktivlarni xalqaro qidirish va qaytarish texnikasi to'g'risidagi hujjatlariga rioya qilish sohasida o'qitishni ta'minlash maqsadida yuridik kadrlarni xalqaro standartlar asosida o'qitish tizimi yo'lga qo'yilgan.

▶ Kurslarning o'quv dasturi **xorijiy ekspertlar ishtirokida** ishlab chiqilib, o'quv mashg'ulotlari asosan **ingliz tilida** olib boriladi.

▶ Kurslarda o'quv mashg'ulotlari asosan **AQSh** va **Yevropada** faoliyat yurituvchi nufuzli xorijiy yuridik kompaniyalarning mutaxassislari tomonidan olib boriladi.


▶ Kurs bitiruvchilariga **Adliya vazirligi** tomonidan tasdiqlangan namunadagi **sertifikat** beriladi va bitiruvchilar **xorijiy yuridik kompaniyalar va arbitraj institutlariga 2–3 oylik stajirovkaga** yuboriladi.

## XORIJIY EKSPERTLAR





# Biz quyidagi davlatlardagi ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlik qilamiz:



## Hamkorlikning asosiy yo'nalishlari

Qo'shma malaka  
oshirish  
va stajirovka  
dasturlari

O'quv  
mashg'ulotlariga  
xorijiy  
ekspertlarni jalb  
etish

Ilmiy tadqiqotlar,  
maqolalar nashr  
etish, qo'shma  
o'quv dasturlari

Xalqaro  
konferensiya va  
seminarlar,  
davra suhbatlari va  
boshqa tadbirlar



